O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING TURIZM IMKONIYATLARI VA UNING AHOLI BANDLIGIGA TA’SIRI

Umarova Gulandom Tumanovna
O‘bekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dots. v.b.
https://doi.org/10.5281/zenodo.20093073

Turizm o‘zining ko‘p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta’sir o‘tkazadi, iqtisodiyotning ko‘pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo‘l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va h.k. Shuningdek, turizmni rivojlantirish bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko‘ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o‘z o‘rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bir qator sohalarni ham qamrab oladi. Aksariyat davlatlarda turizm iqtisodiyotining muhim hamda ustuvor tarkibiy qismi sanalib, mahalliy aholining ish bilan bandligi, mehmonxonalar, restoran va tomoshagohlarning to‘liq ishlashi, xorij valyutasining mamlakatga kirib kelishini ta’minlaydi. Shu bois, ko‘plab mamlakatlar turizm sohasiga katta e’tibor bilan qaraydilar. Turizmning ichki iqtisodiy tabiati shuni ko‘zda tutadiki, turist albatta o‘z pullarini mazkur davlatda qoldirishi kerak. Turizm mahalliy turistik resurslarni ekspluatatsiya qilishga va buning evaziga davlatning foyda olishiga asoslanadi.

Butunjahon mehnat tashkiloti turizmda bandlikni 3 ta asosiy shakllarga ajratadi. Ular:

bilan bandlik. Bunda asosan sayyohlik mavsumida turistlar soni bir necha barobarga oshib ketadi, natijada qo‘shimcha ishchi kuchiga talab ortadi.

✓ *To‘liqsiz ish bilan bandlik yoki to‘liqsiz ish kunida ishlash.* Bunda asosan rivojlangan mamlakatlarning mehmonxona va restoran xo‘jaligidagi bandligi nazarda tutiladi. Ma’lumot sifatida shuni ham aytish mumkinki, turli mamlakatlarda to‘liqsiz ish kuni bilan ishlayotganlar butun

bunda dam olish kunlari, ko‘rgazmalar tashkil etish kabilar nazarda tutiladi.

O‘zbekiston noyob bir mamlakat bo‘lib, uning hududida eng qadimgi tamaddun va alohida ta’kidlash lozim. Mamlakatda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorliklar va ulug‘vor hamda Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari esa YUNESKOning Butunjaxon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Jaxon tarixidagi eng muhim madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ta noyob xodisa – “Buyuk ipak yo‘li” aynan ana shu shaharlar va madaniyatlar markazlari orqali o‘tganligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Qariyb 3 ming yillik tarixga ega bu shaharlarimiz bugungi kunda xalqaro konferensiyalarga, ko‘rgazmalar va ko‘plab nufuzli musobaqalarga mezbonlik qilmoqda. Shu bilan birgalikda, ularning har biri hamisha dunyo ahlini o‘ziga rom etib kelgan. Xususan, Samarqanddagi

Registon majmuasi, Ulug‘bek rasadxonasi, Buxoroning ko‘hna Ark qal’asi, Somoniylar maqbarasi, Xivaning Ichanqal’asi, Qarshining Odina, Ko‘kgumbaz obidalari, Shahrisabzning Oqsaroy madaniy yodgorligi, Qo‘qon o‘rdasi doimo sayyohlar bilan gavjum. Mamlakatda mustaqillikga erishishning ilk yillaridan boshlab, buyuk ajdodlar, aziz-avliyolar xotirasiga yuksak ehtirom ko‘rsatilib, ularning yodgorlik majmualari barpo etildi. Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Hazrati Imom singari ulug‘ zotlar shular jumlasidandir. Hozirda ushbu majmualarni ziyorat qilish maqsadida tashrif buyuruvchilar soni kundan kunga ortib bormoqda. Azaldan mehmondo‘stlikni joyiga qo‘yib, ko‘pchilikka o‘rnak bo‘lgan xalqimiz istiqlol yillarida ana shu ajoyib fazilatini sayyohlik industriyasi, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini takomillashtirish orqali yanada yaqqolroq namoyon etmoqda.

Mutaxassislarning hisob kitoblariga ko‘ra har 30 nafar sayyoh mamlakat turizimi sohasida, 1 ta unga turdosh sohalarda esa 2 ta ish o‘rinlarini yaratadi. Turistlar oqimining ko‘payishi mamlakatning jahon mamlakatlari orasida yanada tanilishiga, mamlakatga valyuta tushimining oshishiga, yangi ish o‘rinlari tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘sishi, aholining ish bilan ta’minlashga oid davlat va hududiy dasturlarning ijro etilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turistik faoliyatda mahalliy aholining ishtirok etishi va undan daromad olishlari ularda iqtisodiy rag‘batni oshirish bilan birga tabiat muhofazasi, iqtisodiy samara uchun katta yordam berib qolmasdan sayohatchilar tashrif buyurgan hududlarda barqaror rivojlanishga o‘zining katta hissasini qo‘shadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda turizm uchta yetakchi sohalar qatoriga kiritiladi. Chunki, turizm tez sur’atlarda rivojlanadi va muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ya’ni turizim:

- ✓ mahalliy daromadni o‘stiradi;
- ✓ yangi ish o‘rinlarini yaratadi;
- ✓ ishlab chiqarishning turistik xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sohalarini rivojlantiradi;
- ✓ turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasini rivojlantiradi;
- ✓ xalq hunarmandchiligi markazlari faoliyatining rivojlanishini tezlashtiradi;
- ✓ mahalliy aholi yashash darajasining o‘sishini ta’minlaydi;
- ✓ valyuta tushumlari miqdorining o‘sishiga yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turizm sohasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli katalizatori bo‘lib, chet el valyutasi va sarmoyalari oqimini ta’minlaydi, unga yaqin bo‘lgan sohalarning tez o‘sishiga ko‘mak beradi, aholi bandligi muammolarini hal etishga yordam beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi obro‘sini oshiradi. Boshqa sohalar bilan qiyoslaganda ancha kam sarf-xarajat bilan turizm sohasida katta miqdordagi valyuta kelib tushishini ta’minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T., “Turizm asoslari”. O‘quv qo‘llanma T – 2011. 288 b.
2. Mamatqulov X.M. va boshqalar Xalqaro turizm. Darslik. Samarqand-2012 345 b.
3. Mamatov B.Q. “Pandemiya sharoitida ziyorat turizmini rag‘batlantirish orqali turizm sanoatini saqlab qolish yo‘llari” https://www.ifmr.uz
4. Navruz-Zoda B.N. “Turistik hudud raqobatbardoshligi” Monografiya. Buxoro - 2017 156 b